



**DUNYOVIY VA MA'RIFIY DAVLAT PRINSIPLARI TURKISTON
JADIDCHILIK SIYOSIY PARTIYALAR MISOLIDA**

Muhammadurayimova Ruhsora

*Islomshunoslik fakulteti Dinshunoslik yo'nalishi 1-bosqich
talabasi*

Annotatsiya. *Musulmon jamiyatlarda din bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar asrlar davomida o'zgarib kelgan. Yangi davrga kelib Rossiya tomonida Markaziy Osiyo mintaqasi hududining bosib olinishi milliy davlatchilik, din va davlat munisabatlariga o'zining keskin ta'sirini ko'rsatdi va bir qancha munozaralarga sabab bo'ldi. Ushbu maqolada Turkiston ijtimoiy-siyosiy tafakkurida din va dunyoviy-ma'rifiy davlat munosabatlarini muammosini hal qilish bilan bog'liq jarayonda jadidlarning asosiy ikki partiyasining ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha qarashlari tahlil qilinadi*

Annotation. *The relationship between religion and state in Muslim societies has changed over the centuries. In the modern era, the conquest of the territory of the Central Asian region by Russia had a dramatic impact on national statehood, religion and state relations and gave rise to a number of debates. This article analyzes the views of the two main parties of the Jadids on the issue under consideration in the process of resolving the problem of relations between religion and the secular-enlightened state in the socio-political thought of Turkistan.*

Kalit so'zlar: *Jadidchilik, din va davlat, demokratiya, Turkiston federal, konstitutsiya, qadimchilar, yosh buxoroliklar, partiya.*

Key words: *Jadidism, religion and state, democracy, federal Turkistan, constitution, ancientists, young Bukhara people, party.*

Markaziy Osiyoda ruslar ta'sirining zaiflashib qolishi oqibatida milliy davlatchilik g'oyasi va islomning jamiyatdagi o'rni ziyoli musulmonlar orasida qizg'in muhokamalarga sabab bo'ladi. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida din va dunyoviylik bilan bog'liq masalalarni hal qilishda ikki xil qarashlar mavjud edi. Birinchi yondashuv – qadimchilar – konservatorlar; ikkinchi yondashuv egalari esa jamiyatning barcha sohalarida tubdan islohatlar o'tkazish tarafdorlari bo'lgan jadidlar edi. Ulardan biri bu “Yosh buxoroliklar” ikkinchisi esa “Turkiston susiyolistlar to'dasi – Erk – Turkiston sotsialistlar”.

“Yosh buxoroliklar” maxfiy jamiyati 1909-yil Buxoroda radikal kayfiyatdagi musulmon ziyolilar tomonidan tuzilgan. Ularning ba'zi rahnamolari Istanbul shahrida tehsil olgan bo'lib, ularning safida Abdurauf Fitrat, Abdulqodir Muhitdinov, Fayzulla Xo'jayev, Munavvar Qori, Mahmudxo'ja Behbudiy bor edi. Yosh buxoroliklarning siyosiy dasturi o'sha vaqtda to'liq tarzda shakllantirilmagan edi. U asosan tatar islohotchiligi va radikal-inqilobiy yo'nalishdagi yosh turklar mafkurasining o'ziga xos shahobchasidan iborat panturkistik tashkilot bo'lgan. Dastlabki bosqichda rus sostializmining unga ta'siri zaif





bo'lgan. 1917-yil “Yosh buxoroliklar” o'zlarining dasturini e'lon qildilar. Undan ayon bo'ladiki, ‘Yosh buxoroliklar’ islomni rasmiy din, shariatni esa – huquqiy manvbalaridan biri deb hisoblaganlar. Ular ko'pgina huquqiy masalalarni hal qillishda an'anaviy musulmon sudlar (qoziliklar)ning ustuvorligini e'tirof etganlar. Dasturda, jumladan shunday deyiladi: “Shariat ahkomi va sharh bilimlarini chuqur egallagan inson Buxoro qozikaloni etib tayinlanadi. U adliya vzairi vazifasini ham o'taydi. Vazir ishlarni mustaqil ravishda hal qilishi mumkin emas, Buxoro ikki yoki uch subyektga bo'linadi. Qozilar beklik va tumanlarning qozilarini tayinlash huquqiga ega. Qozi o'zining ikki muftiysi ya'ni yordamchisi bilan birgalikda aholi o'rtasida sodir bo'ladigan janjal va nizolarni hal etuvchi sudlarni tashkil etadilar. Bundan tashqari Buxoroda Oliy sud tuzishga ham muvaffaq bo'ladilar.”¹⁸ Yosh buxoroliklar Buxoroda hokimyat tepasiga kelgach 1920-yil Buxoro Xalq Sovet Respublikasida konstitutsiya qabul qilingan bo'lib, unda islom tamoyillariga sodiqlik e'lon qilingan edi. Masalan ushbu konstitutsiyaning 26- moddasida ta'kidlanishicha, “Respublikaning hech bir qonuni islomning fundamental tamoyillariga zid bo'lishi mumkin emas”.¹⁹

1917- yilning aprel oyida Toshkentda jadidchi – islohotchilari tomonidan ularning birinchi siyosiy organi - “Turkiston musulmonlar markaziy sho'rosi” tashkil etildi. Ammo tez orada bular ham ikki guruhga bo'linib ketadilar. Ular liberal jadidchilar tomonidan tashkil etilgan “Islom kengashi” va ikkinchi guruh Sherali Lapin boshchiligida “Ulamo jamiyati”. 1917-yilning 26- 27 aprel kunlarida “Islom kengashi” Turkistonning kelgusidagi hayotini qanday bo'lishi kerakligi to'g'risida qurultoy chaqiradilar. Qaror qilinadiki, “idora usuli yangi turi- respublika, xalq respublikasi bo'ladi va shuningdek federal va demokratik respublika bo'lib konstitutsiya tuzish talablari ilgari suriladi, unga binoan Turkistondagi barcha xalqlarning teng huquqlari nazarda tutilgan edi.”²⁰

O'z navbatida, “Ulamo jamiyati” Turkistonning istiqboli haqida o'z qarashlarini taklif qildi. Parlamentning qonun chiqaruvchi faoliyati Rossiya konstitutsiya va shariatga muvofiq amalga oshiriladi. Bundan tashqari Toshkentda shayx-ul islom tomonidan boshqariladigan qonun chiqaruvchi organ “Mahkama –ul Shari'iyya” Shariat sudi tuziladi. Uning a'zolari esa xalq tomonidan besh yil muddatga tayinlanadi. Davlat ichidagi umumiy siyosiy vaziyatning rivojlanishi turli siyosiy harakatlarni murosaga kelishga undar edi. Partiya Toshkent sho'rosiga qarshi chiqib Qo'qonda mustaqil musulmon hukumati tuzishga qaratilgan intilishini qo'llab- quvvatlangan umumiy mavqeni egalladilar.

¹⁸ d'Encausse H.C., Islam and Russian Empire, Reform and Revolution in Central Asia, London, b199-206)

¹⁹ (d'Encausse H.C., Islam and Russian Empire, Reform and Revolution in Central Asia, London, b168)

²⁰ X.Fayzi Oktyabr inqilobi kunlarida ulamolar. 1929 b 14-15





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Turkiston sotsialistlar partiyasi – Xurriyat 1919- yil tuzilgan ushbu diniy va dunyoviy sohalarni bir-biridan ajratish tarafdori bo'lgan. U vijdon erkinligini yoqlab chiqqan va aholining mavqei, dini, irqi va jinsidan qat'iy nazar qonun oldida teng bo'lishi tarafdori edi. Davlat diniy vazifalarni bajo keltirish va jamoat tartibini saqlashni kafolatlaydi, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanish hamda ichki va tashqi dushmanlar qo'lida Turliston ravnaqi va milliy mjustaqilligiga qarshi qurol bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday diniy targ'ibotni qoralaydi.²¹ Ko'rinib turadiki mazkur tamoyillar 1918- yil qabul qilingan cherkovni davlatdan ajratish haqidagi bolsheviklar dekretining ruhi va mazmunidan kelib chiqqan.²²

Islom bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarga oid masalalarni hal qilish bo'yicha turkistonlik jadidchilarning asosiy yondashuvlarini ko'rib chiqayotib, birinchi navbatda tashqi ta'sir omilini qayd etish lozim. Jadidchilar mafkurasining shakllanishiga ham rossiyalik musulmonlar qrim-tatarlar, vo'lgabo'yi musulmonlari hamda boshqa xalqlar ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Mahalliy rasmiy ruhoniylar dunyoviy-ma'rifiy va diniy davlatning yaxlitligi g'oyasini ilgari surganlar. Aholi an'anaviy musulmon davlati jamoat va fuqarolik ishlarida shariat ustuvorligini saqlash ustuvorlik qiladi deb ishonganlar. Vaholanki diniy va dunyoviy davlat prinsiplari o'rtasida ajralish ro'y berdi. Xulosa qilish mumkinki, islohotchi jadidlar orasida jamiyatda dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi muammoni hal qilishda ikki asosiy partiya mavjud edi. Turkiston sotsialistik partiyasi uzil-kesil mamlakatni dunyoviylik asosida boshqarishni taklif etgan bo'lsa, “Yosh buxoroliklar” va “Shoroyi islomiya” partiyalari diniylik asosida mamlakatni isloh qilish tarafdori edi. Ular tomonidan taklif etilgan taraqqiyotning yangi yo'li musulmon olami uchun mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy vaziyat edi, buning amalda qo'llanishi esa 1920-yil Turkiyada amalga oshirilgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. The Rediscovery of history H B Paksoy, London, 1994, B. 117-126
2. Rajabova R. V va boshqalar O'zbekiston tarixi, Toshkent 1994, B. 19
3. d'Encausse H.C., Islam and Russian Empire, Reform and Revolution in Central Asia, London
4. Seyfiddin Ershoxin, Anqara Turkiya Turkiston jadidchilik siyosiy partiyalari.
5. X.Fayzi Oktyabr inqilobi kunlarida ulamolar.1929 b 14-15

²¹ Rajabova R. V va boshqalar O'zbekiston tarixi. Toshkent 1994, B. 19

²² The Rediscovery of history H B Paksoy, London, 1994, B. 117-126)